



1-SINF O'QUV DARSLIKLARIDA BERILGAN ONOMASTIK BIRLIKLAR ELEMENTLARIGA OID MAVZULAR TAHLILI

Ahmedova Mashxura Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7912449>

ARTICLE INFO

Received: 01st May 2023

Accepted: 08th May 2023

Online: 09th May 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

O'tgan asrning 60-70-yillari orasida tilshunoslikda bir qator yo'nalishlar o'z tadqiq obyektiga ega bo'lgan mustaqil soha sifatida ajralib chiqa boshladi. Qayd qilingan davrda tilning atoqli otlar tizimini maxsus tadqiq qilishni o'z oldiga maqsad qilib olgan onomastika, onomasiologiya deb yuritiladigan yo'nalish ham jadal rivojlanish yo'liga o'tgan. Dastlab rus tili institutida, asta-sekin sobiq ittifoqning til va adabiyotni tadqiq qiluvchi institutida onomastika bo'limlari, hatto onomastika markazlari ochildi. Ular milliy tillar leksik tizimidagi atoqli otlarni to'plash va o'rganishga kirishdi. Onomastika muammolarini tadqiq qilish ishiga o'zbek tilshunoslari ham o'tgan asrning 1960-yillaridan alohida e'tibor bera boshlashdi. E.Begmatov o'zbek antroponimiyasini, T.Nafasov Qashqadaryo viloyati toponimiyasini, S.Qoraev esa tarixiy nomlarni o'rganishga kirishdi. Ungacha o'rta va oliy maktab ona tili, o'zbek tili deb ataluvchi darsliklarda turdosh va atoqli otlar sarlavhasi ostida atoqli otlarga kiruvchi nomlarning bir necha turi sanab o'tilardi, xolos. mg

Hozirda o'zbek onomastikasining antroponimika, toponimika, gidronimika, etnonimika, qisman kosmonimiya, zoonimiya yo'nalishlari, shuningdek onomastik lug'atshunoslik, atoqli otlar imlosi qoniqarli tadqiq qilingan. Bugungi kunda tilshunoslikning mazkur bo'limiga oid dastlabki ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga ham o'rgatilmoqda. Maqolamizda aynan shu mavzular 2019- va 2021-yillarda 1-sinf o'quvchilari uchun nashr etilgan "Ona tili" va "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida qay tarzda yoritilganligini tahlil qilamiz.

Demak, nomlar bir narsani ikkinchi narsadan farq qilishga yordam beradi. Onomastika o'rganadigan til birliklari onoma(onuma), ya'ni atoqli otning ko'rinishi va tiplaridir. Bular antroponim, toponim, zoonim, fitonim, kosmonim, teonim va boshqalardir.

Qadimda yashagan kishilarning ijtimoiy hayotini o'rgangan bir qator tarixchi, etnograflarning qayd qilishlaricha, biror urug' va qabilaning umumiy nomi bo'lgan, o'sha urug' yoki qabilaga mansub shaxsning nomi u mansub bo'lgan urug' yoki qabila nomiga mos bo'lgan, ya'ni o'sha etnik guruhga mansub shaxs urug' nomi bilan atalgan. Urug' yoki qabila nomlari esa etnik guruh muqaddas, ilohiy deb sig'inuvchi biror hayvon, qush nomidan iborat bo'lgan. Asta-sekin bu an'ana o'zgarib, urug' va qabila a'zosi bo'lgan har bir shaxs alohida ism

yoki laqab bilan ataladigan bo'lgan. Mana shunday qilib, kishi ismlari (shaxsning dastlabki, ilk atoqli otlari) paydo bo'lgan. Bugungi kunga kelib ular takomillashgan.

Antroponimika o'rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan bo'lsa, o'zbek tilidagi kishi atoqli oti bo'lgan quyidagi onomastik vositalar o'zbek antroponimiyasining birliklaridir:

1. Ismlar - konkret shaxsga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Taxalluslar.
4. O'zbeklarda shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari ("qizi" "o'g'li") yordamida nomlash.
5. Shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "bintu") yordamida.
6. O'tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va otasmlari.

Antroponimik birliklarga oid tushunchalar darsliklarda qanday yoritilganligini o'rganib chiqadigan bo'lsak.

MENING OILAM

Rasmarga qarang. Har biriga mos so'zlarni toping.

1. Bir rasimga bir nechta so'z mos kelishi mumkinmi? Nega shunday?
2. Sizing oilangizda kimlar bor?

1. Oila a'zolaringizni bildiruvchi so'zlarni yozing.

ULAR SIZGA KIM?

10

HOSHIMJONNING OILASI!

Hoshimjonning o'z oilasi haqidagi hikoyasini tinglang.

1. Tanishib qo'yaylik: otim - Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz, Hoshimjon deb aytasiz. Familiyam - Ro'ziyev, Ro'ziyov traktorchining o'g'liman.
2. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ikki-uch og'iz so'zlab o'tsam: dadam qishlog'imizda traktorchilik qiladi. Oyim bo'lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog'adi.

7

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'yida.

1. Qanday ismlarni eshitingiz?
2. Qaysi kasblar haqida aytiladi?
3. Oila a'zolarini bildiruvchi qaysi so'zlar ishlatildi?

"Sariq devni minib" romanidan

8

Ular haqida nimalarni bilasiz?

3. Jadvalni o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlar bilan to'ldiring.
4. Hoshimjonning hikoyasidan yuqoridagi qoidaga mos keluvchi so'zlarni topib, yozing.

11

Shaxs va narsaning nomini bildirgan so'zlar

91-mashq. She'rni ifodalay o'qing.

Ulug' Temur bobomiz
Sevgan, sig'ingan Vatan!
Bobur Mirzo doimo
Qo'msab sog'ingan Vatan!

Rauf Tolib

Ko'chiring. Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga to'g'ri chiziq chizing.

92-mashq. So'zlarni o'qing, ularga so'roq bering.

Qush, gul, sabzavot, sabzi, turna, qaldir'och, binafsha, chuchmoma, piyoz.

Qush, gul, sabzavot nomlarini aniqlang va guruhlab yozing.

Shaxsning nomini bildirgan so'zlar kim?, narsaning nomini bildirgan so'zlar nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

93-mashq. Rasmdagi shaxslarning kasbini ayting va yozing. Ularga so'roq bering.



50

94-mashq. Nima? va nimalar?, kim? va kimlar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib yozing.

Qumri xola doshqozonda sumalak pishirdi. Odil, Nargiza Qumri xolaga yordamlashdi. Qumri xola bolalarga ertaklar va qo'shiqlar aytib berdi. Bolalar ko'p narsalarni bilib olishdi.

Shaxslarni bildirgan so'zlar kimlar?, narsalarni bildirgan so'zlar nimalar? so'roqlariga javob bo'ladi.

● Ismlarning imlosini yodda tuting.

99-mashq. Rasmini kuzating. Bolalarga ism qo'ying.



53

Savollarga javob yozing:

1. Kim kutubxonaga bordi?
2. Kutubxonada kimlar bor edi?
3. Kim Ma'murga kitob berdi?

● Yozgan gaplaringizdagi shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

95-mashq. O'qing. Avval kim?, so'ng nima?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni ko'chiring.

Amir Temur bobomiz bog'lar yaratgan. Bog'larning ichiga saroy, hovuz, favvoralar qurdirgan. U yerlarga mevali daraxtlar, gullar ektirgan. Bog'da tovu va ohular sayr qilib yurgan.

Xurshid Davrondan

51

96-mashq. O'qing. So'zlarni so'roqlariga ko'ra guruhlab ko'chiring.

Hovli, o'yinchoqlar, Halima, daraxt, mehmon, gilam, zinapoya, ayvon, ustunlar, mezbonlar, Mukambar, chavandoz, tennis, o'quvchilar.

● Qaysi so'zlarning yozilishini bilib oldingiz?

100-mashq. O'qituvchi va o'quvchilarga ism va familiya qo'ying.



Savollarga javob yozing:

1. Kim o'quvchilarni o'qityapti?
2. Kimlar o'qituvchining gapini tinglayapti?

54

● Yozgan gaplaringizdagi ism va familiyani bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi

97-mashq. So'zlarning yozilishini taqqoslang. So'zlar nima uchun kichik va bosh harf bilan yozilgan?

bobo	Nurmat	Husanov
buvi	Sharofat	Majidova
ota	Hikmat	Ne'matov
ona	Xosiyat	Nurmatova
aka	Ne'mat	Hikmatov
singil	Dilafroz	Yo'ldosheva

● Siz oila a'zolaringizning ismi va familiyasini yozing.

52

Kishilarning ismi va familiyasi bosh harf bilan yoziladi.

98-mashq. Ismlarga familiya qo'shib, matnni o'qing. Mazmunini hi-koya qiling.

Opa-singillar

Nilufar, Xurshida va Xolida opa-singillar. Ularning onasi Saodat mohir chevar. Qizlar ham onalaridan bichish-tikishni o'rganishgan.

101-mashq. Ifodali o'qing. She'r kimlar haqida ekanini ayting.

Isib ketyapman

Davron dedi Omonga:
— Ketyapimiz qay tomonga?
— Janubga, — dedi Omon.
— Sen buni bilding qandoq?
— Axir, yo'l yurgan sari
Isib ketyapman, o'rtoq!

Rauf Tolib

● Bolalar ismi nima uchun bosh harf bilan yozilgan?

102-mashq. O'qing. Tez aytishni o'rganing.

1. G'ulom sholg'om sho'rvani ichib sog'lom bo'ldi.
2. To'lqin topishmoqni to'g'ri topdi.

55

● Ko'chiring. Bolalar ismini bildirgan so'zlarning tagiga bitta to'g'ri chiziq chizing. Ularga so'roq bering.

Nomlar haqida tushuncha berishdan avval ko'rib turganimizdek, dastlab turdosh otlar haqida ma'lumot berilyapti. Ya'ni nom beriluvchilar bilan tanishtirilyapti. Undan so'ng kishilar ismlariga oid ma'lumotlar kelyapti. 2019-yildagi darslikda 4 soat, 2021-yildagida 3 soat dars ajratilgan. Eski darsliklarda ham yangisida ham dastlab kishi va narsa otlari haqida tushuncha berib o'tilgan. Kim? va nima? so'roqlariga javob bo'luvchi otlarga oid tushunchalar beriladi. Undan so'ng ushbu shaxs va narsa otlarini umumidan ajratib atovchi nomlarga o'tiladi. Barcha darsliklarning maqsadi mavzuni yetkazish bo'lsa ham, eskisida ma'lumotlarni asosan yozma shaklda berilgan bo'lsa, yangisida og'zaki nutqi shakllantirishga alohida e'tibor berilgan.



Berilgan nomlarning mosini tanlang. Hayvonlarga atab nom qo'ying.



Uchqun Olapar Qashqa Momiq
Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.

5. Hayvonlarning nomi ishtirok etgan gaplar tuzing.

1. Rasmda qaysi uy hayvonlari tasvirlangan?
2. Nega ularni uy hayvonlari deyimiz?
3. Yana qanday uy hayvonlarini bilasiz?
4. Nima deb o'ylaysiz, bu hayvonlar qayerda yashaydi?
5. Bu hayvonlar nima bilan oziqlanadi?
6. Ayting-chi, bu hayvonlar nima uchun boqiladi?

1. Uy hayvonlarining bolasi nomini yozing.

Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi

109-mashq. Har bir hayvon nomini unga atab qo'yilgan nom bilan yozing.

mushuk	Olapar, Qoplon
it	Boychibor
ot	Qashqa, Govmish
sigir	Popuk, Momiq

• Yozganlaringizni tekshiring. Hayvon nomlari nima uchun bosh harf bilan yozilgan?

60

Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.

111-mashq. Berilgan so'zlardan bir-biriga mosini tanlab, gaplar tuzing va yozing. Gaplarni bosh harf bilan boshlang.

Olapar	kishnaydi
Mosh	vovullaydi
Boychibor	miyovlaydi

• Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning tagiga chizing.

112-mashq. Rasmdagi narsalarning nomini ayting va yozing.

• Bu so'zlar qaysi so'roqqa javob bo'ladi?

61

Men — Najmiddin Kubro, Xorazm elini og'ir paytda Tashlab ketmagan.

• **Dilbandi** so'zining ma'nosini bilasizmi?

Savollarga og'zaki javob bering:

1. So'zlar nimalarga nom bo'ladi?
2. Kishilarning ismi va familiyasi qaysi so'roqqa javob bo'ladi?
3. **Nima?** so'rog'i qaysi so'zlarga beriladi?
4. Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar qanday harf bilan yoziladi?

114-mashq. Chiziqlar o'rniga joy nomlarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Men _____ ko'chasida yashayman. O'rtog'im _____ ko'chasida yashaydi. Bizning _____ nomli mahallamiz juda obod.

63

Zoonimiya hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarni o'rganuvchi bo'lim hisoblanib, giponim – zotli ot(lar)ga beriladigan laqab-nom, ornitonim – alohida, yakka olingan qushga berilgan laqab-nom va yana boshqa bir qancha mikroko'lamlarga ajratilgan holda tahlil qilinadi.

Darsliklarda hayvon nomlari bilan tanishish uchun 1 soat ajratilgan. Mavzu atrofida berilgan mashqlar, "Izzatning jo'jalari", "Kim tuzatadi" kabi hikoya va she'rlar, rasmlar, og'zaki topshiriqlar hayvonlarga oid umumiy tushunchalarni shakllantirish va mustahkamlashga yordam beradi.

Audiomatnlarni tinglang. Savollarga javob bering.

BU QANDAY BAYRAM?

1. Vatan nima uchun himoya qilinadi?
2. Tinchlik posbonlari kimlar?
3. Qanday qilib Vatanni quruksiz himoya qila olamiz?

29

1. Bayroqdagi yashil rang nimaning ramzi?
2. Nega globus atrofidagi odamchalarning rangi har xil?
3. Umumiy uy qanday bo'ladi?

1. Yangi yilni boshqa xalqlar qanday kutib oladi?
2. Yangi yil nima uchun bolalarning sevimli bayrami?
3. Yangi yil bayrami uchun qanday rejalar tuzdingiz?

30

1-yanvar – Yangi yil

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

21-mart – Navro'z bayrami

9-may – Xotira va qadrlash kuni

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

1-sentyabr – Mustaqillik kuni

1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni

Bayram nomlarining birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi: Navro'z bayrami.

Taqvimdagi oylarni ovoz chiqarib o'qing.

Bayram sanalari va nomlarini ovoz chiqarib o'qing.

Bayram sanalarini taqvimdan toping.

Taqvimdan o'z tug'ilgan kuningizni toping.

Taqvimdan hafta kunlarini aniqlashni o'rganing.

Ushbu taqvimda ko'rsatilmagan bayram nomlarini ayting.

3. Jadvalni to'ldiring.

32

Biz yil davomida nishonlaydigan bayramlarimiz nomlari ham maxsus tahlil talab etadigan onomastik birlik ekanligi kimning ham xayoliga kelibdi deysiz? Ideonimga kiruvchi mikroko'lam tarkibiga geortonim - har qanday bayram, festival, xotira kunlari va mana shu xildagi marosim va tadbirlarga berilgan atoqli otlar ham kiradi. Kunilarimizni bezaydigan turli xil tantanalar nomi ham o'ziga yarasha alohida ma'nosi, kelib chiqish tarixiga ega. Ularni yozishning ham o'z qonun qoidalari mavjud. O'qituvchi boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilariga ideonimlarni tilshunoslik nuqtayi nazarini hisobga olgan holda qisqacha tushuntirish berib o'tishi lozim.

OQ TERAKMI, KO'K TERAK?

1. Rasimga qarang. O'yin nomlarini yozing.

153-mashq. Rasm asosida savollarga javob bering.

«Mehmon-mehmon» o'yini

86

1. Mehmon kelganda qanday kutib olinadi?
2. Mehmonning qo'lga suv qanday quyiladi?
3. Mehmonga sochiq qanday tutiladi?

Xalq ijodkorligi mahsuli bo'lgan o'yinlar uchun ham maxsus qo'yilgan nomlar ham ideonimlarning bir qismi hisoblanadi. Masalan, "Oq terakmi, ko'k terak?", "Mehmon-mehmon", "Lanka", "Ko'pkari", "Uloq", "Chillak"... Pedagog bu darsni o'tish davomida o'quvchilarga o'yin turlari, ularning shartlari, qonun-qoidalarini o'rgatish orqali ham ta'lim, ham tarbiya bera oladi.

Dialogni o'qing.

Gazeta muxbiri

- Shaxmat o'ynashni qachon boshlagansiz?
- Besh yoshimda boshlaganman.
- Shaxmatni kimdan o'rgangansiz?
- Dadam o'rgatganlar.
- Birinchi katta yutug'ingiz qaysi bo'lgan?
- O'zbekiston chempionatida oltin medal olganman.
- Qaysi mamlakatlarda bo'lgansiz?
- Eron, Rossiya va Ruminiyaga boranman.
- Ustozingiz kim?
- Ustozim - Shahobiddin Hamroqulov.
- Tengdoshlaringizga qanday maslahat bera olasiz?
- Shaxmat o'ynang, u aqlingizni charxlaydi.

Chempion

98

7. Matn asosida jadvalni to'ldiring.

Suhbatdoshlar kim?
Suhbat qaysi sport turi haqida?
Qahramonning yoshi nechada?
Ustoz kim?
Bu o'yinni unga kim o'rgatgan?
Birinchi katta yutug'i qaysi?
Qanday maslahat berdi?

8. Matnda ishtirok etgan joy nomlarini yozing.

Mamlakatlarning nomi bosh harf bilan yoziladi.

99

Joylarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi

103-mashq. Rasmni kuzating. Unda qaysi shahar tasvirlanganini ayting.

Toshkent — O'zbekistonning poytaxti. Toshkentning yerosti shahar-

66

chasi metro deyiladi. Metroning **Chilonzor, O'zbekiston, Yunusobod** yo'nalishlarida poyezdlar qatnaydi. Toshkentda **Fransiya, Germaniya, Rossiya, Koreya, Yaponiya** kabi ko'plab xorijiy davlatlarning elchixonalari joylashgan.

104-mashq. O'qing. Matnda kimning yoshligi bayon qilingan?

Mening bolalik yillarim Farg'ona vodiysining Yaypan, Buvayda, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan. O'tmish hayotimdan esimda qolganlarini «O'tmishdan ertaklar» asarimda yozdim.

Abdulla Qahhordan

105-mashq. O'qing. Matnda kimning yoshligi bayon qilingan?

Joy nomlarini ko'chiring. Ular nima uchun bosh harf bilan yozilgan? Ularga so'roq bering.

98

106-mashq. Matnni o'qing. Joy nomlarini ko'chiring.

Qarshi

Qarshi — qadimiy va navqiron shahar. Qarshi shahridan temiryo'l o'tadi. Temiryo'l Qarshini Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Termez shaharlari bilan bog'laydi.

99

107-mashq. O'zingiz bilgan shahar, qishloq, ko'cha nomlarini yozing.

Namuna:

Shaharlar: **Toshkent**, ____, ____, ____, ...

Qishloqlar: **Yakkatol**, ____, ____, ____, ...

Ko'chalar: **Qatortol**, ____, ____, ____, ...

108-mashq. Ko'chiring. Joy nomlarining tagiga chizing.

Buxoro

Buxoro — qadimiy va navqiron shahar. Shaharda Labihovuz, Ko'kal-dosh kabi yodgorliklar bor. Sayohatchilar Shohrud arig'i bo'yida sayr qiladilar.

B. Saidomonovdan

104-mashq. O'qing. So'roqlar yordamida joy nomlari va kishi ismlarini aniqlang.

Ko'hna Urganch Xorazm davlatining poytaxti edi. Uni Chingizxon qo'shirlari vayron etdi. Jaloliddin Manguberdi Vatan ozodligi uchun kurashdi.

Ko'chiring. Joy nomlari va kishi ismlarining tagiga chizing. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

Siz **vayron etdi** deganda nimani tushunasiz?

Joylarga atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.



Insoniyat rivojlanish jarayonida bir joyni ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'-adirlami, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham nomlar o'ylab chiqargan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o'rganadi. O'rganilayotgan qismlarda joy nomlari imlosiga to'xtab o'tilgan. Yangi darslikda mavzu davomida bolalarni sportga, dunyo bo'ylab sayohatga undovchi ruh sezilib tursa, narigisida shaharlar tarixini o'rgatish yo'lidan borilgan. Yangi chop etiladigan darsliklarda har ikkala jihatni o'zida jamlagan topshiriqlar berilsa, o'quvchilarda ham o'tmishni, ham bugunni tengdaniga o'rganish imkoni bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak. O'rganilayotgan darsliklarda onomastik elementlar imlosiga, ularning bosh harf bilan yozilishiga asosiy e'tibor qaratilgan. Albatta, bizning ona tilimizga bo'lgan hurmatimiz husnixatimizni chiroyli, yozma nutqimizni bekam-u ko'st, xatolarsiz qilishimiz, bunga intilishimizda ham namoyon bo'ladi. Ikkalovi darsliklarda ham mavzu uchun ajratilgan dars soatlari deyarli teng. O'quvchilar uchun berilgan mashq, topshiriqlar bir asosga ega. Faqat biridagi yozma mashqlar ko'proq bo'lsa, ikkinchisida aksincha og'zaki. Imlo qoidalari yozma nutq uchun bo'lgani sabab, bu mavzu doirasida yozma mashqlarning ko'proq bo'lishi maqsadga muvofiq.

References:

1. Toponimika: O'quv qo'll. / S. Qorayev. — X: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2006. — 320 b.
2. O'zbek tili antroponimikasi / E.A.Begmatov. -Toshkent: Fan, 2013. – 264b.
3. Ona tili: 1-sinf uchun darslik /Muall. T. G'afforova,E. Shodmonov, X. G'ulomova. — T.: «Sharq», 2019. —112 b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I.Azimova va boshqalar. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
5. Tojimamatovich, J. V. (2023). CONCEPT AND ESSENCE OF INFORMATION SECURITY. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4), 643-647.
6. Tojimamatovich, J. V. (2023). Digital Transformation of Educational Management System. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 202-206.
7. Jo'rayev Vohid Tojimamatovich, A. M. (2022). Working With Geospatial and Descriptive Data in A Geoinformation System. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 113-116.
8. Zokirova, S. M., & Axmedova, D. O. (2021). WORKING WITH BORROWINGS GIVEN IN DICTIONARIES OF PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *Theoretical & Applied Science*, (3), 275-278.
9. Mukhtoralievna, Z. S., & Egamberdiyevna, H. M. (2023). USE OF MODERN TEACHING METHODS IN MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS OF PRIMARY CLASS. *Open Access Repository*, 4(3), 1092-1100.
10. Mukhtoralievna, Z. S., & Salimakhon, M. (2022). Psycholinguistics and Neurolinguistics of Bilingualism. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 387-391.
11. Zokirova, S. M., & Topvoldiyeva, Z. R. (2020). ABOUT BORROWINGS IN THE UZBEK LEXICON. *Theoretical & Applied Science*, (4), 701-705.



12. Зокирова, С. М. (2021). О ОМОСЕМАНТИЧЕСКОЙ КОНГРУЭНТНОСТИ В ЯЗЫКАХ. *Редакционная коллегия*.
13. Akmaljonovna, Z. A., & Usmonalievna, A. R. (2022). Analysis Of Views On The Formation Of The Linguistic Landscape Of The World. *Anglisticum. Journal Of The Association-Institute For English Language And American Studies*, 11(1), 11-18.
14. Akbarova, Z. A. (2020). THE STUDY OF THE CONCEPT OF" LANGUAGE CARRIER" IN LINGUISTICS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY* (pp. 14-19).
15. Акбарова, З. А. (2020). Инсоннинг тили, руҳияти ва онгининг боғлиқлигига доир мулоҳазалар таҳлили. *Международный Журнал Искусство Слова*, 3(2).
16. Akmaljonovna, A. Z. (2020). The Impact Of Linguistic Consciousness On The World Image. *Anglisticum. Journal Of The Association-Institute For English Language And American Studies*, 9(5), 26-38.
17. Акбарова, З. А. (2020). Размышления О Психологической Характеристике Языковой Личности. In *Проблемы Филологического Образования* (pp. 146-151).
18. Urinboyevna, E. Y., & Zarina, M. (2022). Existence of Integration in Secondary Schools. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 119-124.
19. Urinboyevna, E. Y., & Shahruza, R. (2021). About Gender Equality and the Process of Ensuring It. *International Journal of Innovative Analyzes and Emerging Technology*, 1(7), 54-56.
20. Urinboyevna, E. Y. (2021). Classification of Integrative Education. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 162-164.
21. Egamberdiyeva, Y. U. (2021). БО 'LAJAK O 'QITUVCHILARINING PSIXOLOGIK PEDAGOGIK BILIMLARINI INTEGRATSIYALASH JARAYONI. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 351-355).
22. Komilova, N. K., Karshibaeva, L. K., Egamberdiyeva, U. T., Abduvalieva, Z. L., & Allanov, S. Q. (2020). Study of nozogeographic situation and its study on the basis of sociological survey. *Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology*, 14(3), 2118-2123.
23. Valijonovna, K. I. (2022). THE CONCEPT AND ESSENCE OF DIVERGENT THINKING IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 86-94.
24. Kxoldorova, I. (2019). Antisemic relations of generative lexx in Uzbek language. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(6), 327-330.
25. Valijonovna, X. I., & Kizi, K. G. K. (2022). National Values and Their Specific Characteristics. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 16-19.
26. Valijonovna, X. I. (2022). METHODS OF INCREASING MOTIVATION TO READING BOOKS IN PRIMARY CLASSES. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 199-205.
27. Kuchkarova, M. A., & Ganiyeva, S. (2023). FEATURES OF LOGICAL THINKING. *Open Access Repository*, 4(3), 674-679.
28. Kuchkarova, M. A. THE IMPORTANCE OF LOGICAL PROBLEMS IN DEVELOPING CRITICAL THINKING OF CHILDREN. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 171.
29. Makhmuda, Q., & Maftuna, K. (2020). Creative tasks in mathematics lessons in primary classes. *Proceeding of The ICECRS*, 6, 398-400.
30. Kuchkarova, M. A. (2020). Решение Нестандартных Задач Методом Рассуждения На Уроках Математики В Начальных Классах. *Theoretical & Applied Science*, (1), 682-685.



31. Adkhamjonovna, K. M., & Sarvinoz, K. (2022). WAYS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(10), 104-107.